




BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

4/2024



4/2024

E-ISSN 2181-1466
 9 772 181 146004

ISSN 2181-6875
 9 772 181 687004

@buxdu_uz

@buxdu1

@buxdu1 www.buxdu.uz

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 4, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab filologiya fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab fizika-matematika fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab siyosiy fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti
Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o'rinnobosari: Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)
Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)
Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
Mimin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)
Tashgarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)
Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)
Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor
Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Durdiev Durdumurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor
Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor
Or'ayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor
To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor
Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori
Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor
Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor
Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor
Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor
Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent
Esanov Husmaddin Qurbanovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor
Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent
G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Safarov F.S.	O'zbek adabiy tilida ko'plik ma'nosining ifodalanishi va tejamkorlik	4
Akhmedova R.A.	Antropocentric aspect of phraseological units with the component "red"	12
Alieva N.X., Mukhtoraliyeva F.A.	The role of translation in the enrichment of languages: analysis of some neologisms presented in «Steve Jobs» by Walter Isaacson	17
Barnoyeva Z.S.	O'zbek leksikografiyasida boshlang'ich sinf o'quv lug'atlarini tuzishning ahamiyati	22
Barotova N.Sh.	O'zbek kinodiskursida "milliylik" obrazini yaratishning tamoyillari	27
Ganieva O.Kh., Khakimova D.M.	Concept of term definition and its characteristics	32
Kurbanova G.S., Pulatova U.B.	Frazeologik konsepsiylar talqini	37
Jumayev E.B., Nurullayeva G.X.	O'zbek va nemis tilida shaxs ifodalovchi vositalar	45
Raxmonova Y.X.	Matn tili va tarjima muammolari	50
Ro'ziyev Y.B., Halimova Sh.Sh.	O'zbek va nemis tillarida o'tgan zamonning voqelanishi	55
Turayeva D.M.	Muallif punktuatsiyasining yuzaga kelishi va punktuatsion tizimdagи yangi an'analar	61
Xodjayeva D.I.	Lingvodidaktik terminologiya tadqiqot obyekti sifatida	65
Yaqubova M.M.	Tarjima jarayonida asl matnning semantik va pragmatik jihatlarini saqlash masalalari	70
Ахмеджанова С.Дж.	Сбор и анализ корпусных данных для узбекского и русского языков	76
Жўраева И.А.	Инглиз ва ўзбек антропонимик лугатларида атокли отларнинг берилиш усуллари	81
Шермухамедова Н.А.	Двуязычный и многоязычный устный корпус	87
Qobilova N.S.	Til tejamkorligi nazariyasining tadqiq qilish tamoyillari	92
Qodirova H.X.	Badiiy diskurs tarjimasida kommunikativ-funksional yondashuv	98
Yuldasheva F.E.	Expression of the modesty maxim in communication	102
Рабиева М.Ф.	Эвфемизмларнинг дискурсив турлари ва уларнинг таржима стратегияларини белгилашдаги роли	106
Ataeva G.B.	The power of idioms in business English: communicating with impact	117
Karimova D.H.	Tarjimada variantlilik hodisalarining asosiy belgilari xususida (Aka-uka Grimm ertaklarining o'zbekcha tarjimalari misolida)	122

O'ZBEK VA NEMIS TILIDA SHAXS IFODALOVCHI VOSITALAR

Jumayev Erkin Boltayevich,
Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD
Nurullayeva Gulshana Xayrullayevna,
Buxoro davlat universiteti magistranti
jumaev.erkin@inbox.ru

Annotatsiya. Magolada o'zbek va nemis tilida shaxsni ifodalovchi turli usul va vositalar mavjudligi, ular son kategoriyasi, fe'lning qo'llanilishi va tuslanishida, shuningdek, ot so'z turkumida ham muhim rol o'ynashi to'g'risida fikr yuritiladi. Bundan tashqari ot leksema nutqda ikki grammatic forma shaklini oladi. Mazkur grammatic kategoriyalar or leksemaga birlamchi shakl sifatida mansub bo'lib, ular ot leksemaning nutqda namoyon bo'lish shakli hisoblanadi. Otlarda uchinchi bir grammatic kategoriya ham mavjud bo'lib, u egalik kategoriyasidir. Yuqoridaq ta'riflarni hisobga olib, shaxsni ifodalovchi grammatic strukturaning asosini ayanan ot so'z turkumi tashkil qila oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: leksema, grammatic forma, tejamkorlik, mikromatn, makromatn, kategorial ma'no, morfema, rod, grammatic miqdor.

СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В статье рассматривается существование различных способов и средств выражения личности в узбекском и немецком языках, которые играют важную роль в разряде числа, употреблении и склонении глагола, а также в группе существительных. Кроме того, именная лексема в речи принимает вид двух grammaticальных форм. Эти grammaticальные категории принадлежат именной лексеме как первичной форме и являются формой проявления именной лексемы в речи. Существительные имеют третью grammaticальную категорию — притяжательную категорию. Принимая во внимание приведённые определения, не будет преувеличением сказать, что основу grammaticальной конструкции, представляющей человека, может составить группа существительных.

Ключевые слова: лексема, grammaticальная форма, экономия, микротекст, макротекст, категориальное значение, морфема, род, grammaticальное количество.

MEANS OF PERSONAL EXPRESSION IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

Abstract. The article discusses the existence of various methods and means of expressing the person in the Uzbek and German languages, which play an important role in the number category, the use and declension of the verb, as well as in the noun group. In addition, the noun lexeme takes the form of two grammatical forms in speech. These grammatical categories belong to the noun lexeme as the primary form, and they are the form of manifestation of the noun lexeme in speech. Nouns have a third grammatical category, which is the possessive category. Taking into account the above definitions, it is not an exaggeration to say that the basis of the grammatical structure representing a person can be formed by the noun group.

Keywords: lexeme, grammatical form, economy, microtext, macrotext, categorical meaning, morpheme, gender, grammatical quantity.

Kirish. Fan va texnika keng ko'lamda rivojlanib borayotgan bir davrda ilm-fan, jumladan, o'zbek adabiy tilining ham saqyllanib borishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Tilshunos olimlarimiz ham zamon talabidan kelib chiqib, soha bo'yicha turli xildagi ilmiy izlanishlarni olib bormoqdalar, ayniqsa, mazkur izlanishlarning chog'ishtirma tilshunoslik yo'naliishida olib borayotganligi o'zbek tili milliy ruhining qayta shakllanib va yuksalishiga asos vazifasini o'tab kelmoqda.

Asosiy qism. O'zbek tilida shaxsni ifodalovchi turli usul va vositalar mavjud bo'lib, ular son kategoriyasi, fe'lning qo'llanilishi va tuslanishida, shuningdek, ot so'z turkumida ham muhim rol o'ynaydi. Ot – mustaqil so'z turkumlaridan biridir. U boshqa so'z turkumlaridan bir necha belgi-xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ot so'zning leksik ma'no tashuvchi qismi ya'ni predmetlik ma'nosini anglatadi. Ot leksema

LINGUISTICS

nutqda ikki grammatick formaning shaklini oladi. Bu grammatick kategoriylar ot leksemaning birlamchi shakl sifatida mansub bo'lib, ular ot leksemaning nutqda namoyon bo'lish shakli hisoblanadi. Ottarda uchinchi bir grammatick kategoriya ham mayjud bo'lib, u egalik kategoriyasidir. Yuqoridagi ta'riflarni hisobga olib, shaxsni ifodalovchi grammatick strukturaning asosini aynan ot so'z turkumi tashkil qila oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Saida u odamlardan har nima kutish mumkin degan ma'noda jilmayib bosh chayqadi. Arslonbek Qalandarov – "Bo'ston" kolxozining raisi, mashhur raislardan bo'lib, o'tgan hafta kolxozdan rayonga mashina haydab ketayotganida yo'lini to'sgan militisioner bilan janjallazhgan, uni urib, yiqitib o'tgan edi.(A.Qahhor "Sinchalak")

Son kategoriysi ham o'zbek tilida shaxsni ifodalovchi muhim vositalardan bo'lib hisoblanadi. Son egalik kategoriysi shaklidan ham oldin qo'shibil, grammatick miqdor ma'nosini ifodalovchi tuzilishlar sistemasidir. U ikki: birlik va ko'plik shakllaridan iborat so'z birikmasidir.

Saida telefonga javob beradimi, kelgan – ketgan odamlar bilan muomala qiladimi, qo'lida qog'oz kapalakday uchib, hali u eshikka, hali bu eshikka kirib chiqadimi- boshida xayol arimay qo'ydi: gimnastyorka va etik kiyib dalalarni aylanadi, qayerga borza kolxozechilar o'rab olishadi.(A.Qahhor "Sinchalak" 13-bet).

Mantiqiy miqdor bilan grammatick miqdor oz'aro bir-biridan farq qiladi. Mantiqan atoqli ot bo'lib kelgan so'z yakka predmetni atab turadi: *Ali bobo bundan ko'p yillar mugaddam xotinini so'yib tashlagan, Saida ham shu xolasi To'tinisoning qo'lida o'sgan.* Turdosh ot esa , turning nomi sifatida, o'z-o'zidan, mantiqan bittadan ortiq predmetni nomlay oladi. Shu bilan bir vaqtida turdosh ot yakka predmetni ham anglatib keladi. Masalan: *Dalani aylandim* deganda shaxs birlikda, chunki -m qo'shimchasi orqali fe'l tuslanib kelgan, ot esa ham birlik, ham ko'plikni anglatishi mumkin, *dalalarni aylandim yoki dalani aylandim.*

Ko'rindiki, atoqli otning yakka predmetni atashi leksemaning semantik xususiyatiga bog'liq, turdosh otning yakka yoki ko'p predmetni anglatishi esa, leksemaning semantik xususiyatidan tashqari, nutq situatsiyasiga, kontekstiga bog'liq.

O'zbek tilida son kategoriyasining yagona *-lar* qo'shimchasi ko'plik shaklini tashkil qiladi. Bu morfemaning ish doirasini ancha kengayib, u hozirgi o'zbek tilida ko'plikni, ko'plikka bog'liq ma'nolarni, shuningdek ko'plik va son kategoriyasidan tashqari chiqadigan ma'nolarni ham ifodalaydi. Aslida *-lar* affiks asosida paydo bo'lgan, ammo son kategoriysi doirasida emas, balki egalik kategoriysi doirasida *shakllangan maxsus hurmat shakli* mavjud, bu shaklini aytilb o'tilgan ikki grammatick kategoriyanadan ajratib olib, alohida mustaqil shakl sifatida talqin qilish lozim. Endi esa *-lar* atoqli ottarda kelishiga bir nazar solsak. Ular orasida *-lar* qo'shimchasini oluvchilar ham, *-lar* qo'shimchasini olmaydiganlar ham mavjud. Masalan tabiatda yagona bo'lgan: Yer, Omon, Quyosh, Oy kabilar *-lar* qo'shimchasini olmaydi, chunki ular o'z semantik xususiyati asosida yakka mavjudotni anglatib keladi.

Ba'zan shaxsni ifodalovchi otlarni o'zbek tilida kishi otlari deb ham yuritilishi haqidagi farazlar ham uchrab turadi. Unga ko'ra otlarni kishi otlari va narsa otlari deb guruhlash keng tasnif nuqtasi bo'lib, atoqli otlarni ham, turdosh otlarni ham qamrab oladi. Son jihatidan atoqli ottarda alohida xususiyat borligi sababli kishi atoqli otlari ham o'sha yerda tasvirlanadi. Ular jam va dona kishi ottaliga bo'linib, shaxsni bildiradi. Dona kishi ottarning ko'pi konkret yakka sanaluvchi ma'no turiga to'g'ri keladi. Bunday ottalarga ota. Kelin, qiz, chol, direktor, singil, opa, xola,...kabi qator misollarni keltirish mumkin. Masalan: *Chol yerga qaraganicha, g'am- g'uszaga to'la bir kuyni xirgoyi qilib, Karimaning oldidan o'tib ketdi.* (A.Qahhor "Sinchalak" 16-bet)

Ona tilimizda son bilan ifodalangan shaxsni anglatib keladigan sifatlovchilarga ham duch kelamiz. Bunday holda ular aniqlik miqdoriga urg'u bo'lib keladi.

- O'zлари nima ish qiladilar? - dedi Saida.

- Kolxoza hisobchi...ikki bola ko'rnik. Bolalarimizning kattasi o'n oltiga qadam qo'ydi.

O'zbek tilida shaxsga ishora qilib keladigan so'zlar ya'ni otlar qatoriga olmoshlar ham kiradi, asosan kishilik olmoshlarini nazarda tutyapmiz. Kishilik olmoshlar shaxs va son ma'nosini ham bildiradi. Shu o'rinda kishilik olmoshlarini tahsil qilib o'tmoqlikni afzal ko'rnik.

-men: I-shaxsni anglatib kelib, quyidagi morfologik vositalar bilan birikadi: *-man, -mit, -m, -k, -(a)y* va *-(a)ylik* yordamida yasaladi. Masalan:

- Hayron bo'lishingizni bilar edim, lekin qo'rqib ketarsiz deb sira o'ylamagan edim

- Axir men ...go'limdan kelmaydi.

- Qayogdan bilasiz? Sekretar bo'lib ko'rganmisiz?

- Meni Qalandarov pizand qilarmidi?....

LINGUISTICS

Qalandarovning kuch va talantini kerakli tomonga yo'naltiramiz.

-sen: II-shaxsnii bildirib, quyidagi morfologik vositalar bilan birikadi: -san, -sanlar, -siz, -sizlar, -ng, -ngiz, -nglar, -ngizlar, -laring, -laringiz, -(i)sh, -(i)ing, -(i)nglar, -(i)ngiz, -(i)ngizlar: "Jon uka, rahbarga ro'para qilib erkak qaddimni bukma, qancha jarima olsang, ol", deb cho'ntagini tutibdi.

-u, biz: III-shaxsda esa aniq va ma'lum qo'shimchalarini aya olmaymiz. Mayl va zamon qo'shimchalarini ayni paytda shaxs ko'rsatkichi vazifasini bajaradi. Masalan: -di qo'shimchasi xabar maylining o'tgan zamon ko'rsatkichi bo'lishidan tashqari III-shaxsnii ham ko'rsatadi. -sin qo'shimchasi buyruq yoki istak bilan birga III-shaxsnii ham ifoda etadi. *Pisand qilmasa, cho'qimaydi, demak, biz boshqa narsaga alahsiramasdan ishimizni qilavaramiz:* partiya tazhkilotini jonlantiramiz. *Qalandarovning kuch va talantini kerakli tomonga yo'naltiramiz.* *Sen-u men o'z toshimizga bir botmon bo'lib yuribmiz-da, buning toshi bilan tortilsak, posangiga yaramaymiz.* (A.Qahhor "Sinchalak"16-bet).

Demak, shaxsnii tasdiqlab keladigan kishilik olmoshlaridan tashqari , gapning kesimi qabul qildigan qo'shimchalaridan ham qaysi shaxsga ishora qilayotganini aniqlab olish mumkin. O'zbek tilida gap bo'lishi uchun aynan fe'l so'z turkumi katta rol o'yinaydi.

Keldi. Aytmadimmi, mana shunaga goqinaman-da... Shu o'rinda ona tilimiz – o'zbek tilining tejamkorlik xususiyatiga boy til ekanligini ham eslatib o'tishni joiz deb bildik. Garchi yuqoridagi gaplarda aynan shaxsnii ifodalab keladigan so'z berilmagan bo'lsada, kesimlar qabul qilgan qo'shimchalar shaxslarga ishora bo'lib kelyapti.

G'Zikrillayevning ta'kidlashlaricha hozirgi o'zbek adabiy tilida fe'l turkumida shaxs, son va hurmat ma'nolari bir xil shakl tizimi bilan ifodalanadi. Bunda shaxs yetakchi va asosiy hisoblanadi. An'anaviy tilshunoslikda u barcha tadqiqotda olib qaraladi. Son aksariyat ishda shaxs bilan uzviy bog'langan deb chiziqcha qo'yib (shaxs-son tarzida) yoziladi. Hurmat kategorial ma'no deb qaralmaganidan shakkllari izchil o'rganilmagan. Holbuki eng kichik shakl (fe'lning o'zagi) da uchala kategorial ma'no mayl va zamon bilan birkalikda o'z ifodasini topadi. Bunday holda tejamkorlik yuqori darajada zarur bo'ladi. Ayrim yasama shaklda ham beshala kategoriya bitta qo'shimcha (masalan -di) orqali ifodalanadi. Uchala kategorial ma'noni birkalikda ifodalaydigan qo'shimcha tizimi ham mavjud.

Shaxs ma'nosini mazkur shakllarning barchasida belgilangan bo'lib, predikativlikni (kesimlilik) shakllantirishda zarur unsuri sifatida ishtirok etadi. Shaxs fe'l o'zagining lug'aviy ma'nosiga ko'ra inson va boshqa joni, jonsiz ma'judotni anglatadi. Bu uning *lisomiy* xususiyatidir. Nutqiy amal (nutq akti) yoki kommunikatsiya jarayonida fe'lning mazkur shakkllari *so'zlovchi, tinglovchi* va *o'zga* vazifasini bajaradi. Bular grammattikada I, II, III shaxs deb yuritiladi. Fe'l shakllarining morfologik tasnifi shu asosda amalga oshiriladi. Mayl va zamon kategoriyasida ham bu tasnif inobatga olinadi (II- shaxsda buyruq mayli shakli kabi)

Nemis tilida shaxs boshqa tillarda bo'lgani kabi olmoshlar bilan ham ifodalaniladi. Nemis tilidagi olmoshlar ob'yektni yoki shaxsnii ko'rsatadigan va ularni aytmasdan almashtira oladigan nutq qismidir.

„Du, ihr , Sie“ kishilik olmoshlari nutq qaratilgan shaxsnii anglatadi. Du kishilik olmoshi senlab gapirish uchun ishlataladi. U bilan oila a'zolari, qarindoshlar, do'st- birodarlar, tanish- bilishlar, bir korxona yoki tashkilotga xizmat qiluvchilar, shuningdek bolalar bir- birlariga murojaat qilishadi.

„Ihr“ olmoshi nutq qaratilgan II-shaxs ko'plik anglatadi. III shaxs ko'plik olmoshi „Sie“ birlik va ko'plikda hurmat shakli sifatida ham qo'llaniladi. Bunday paytda u bosh harf bilan yoziladi, biz quyida misollar yordamida ko'rsatib o'tishni joiz deb bildik.

Tränen, die ich kaum beherrschen kann, drängen sich in meine Augen....Im Vorfrühling trier er immer schöne Blüten, aber nie hatte er Nüsse getragen.(O'tkir Hoshimov „Kein Himmel auf Erde(Dunyoning ishlari“).

Fikrimizga batafsilroq e'tobor qaratish maqsadida nemis tilida kishilik olmoshlarining har biriga alohida urg'u berib o'tmoqchimiz.

„Ich“(men) – shaxsiy olmosh bo'lib, 1-shaxs , o'z shaxsi uchun ishlataladi ya'ni o'zini belgilash uchun: siz va men , ikkalamiz ham buni birkalikda qila olamiz. Men charchadim, men kambag'alman

Ich antwortete mechanisch....ich antwortete und dachte bei mir.(O'Hoschimow „Kein Himmel“S.11.)

„Du “(sen)– shaxsiy olmosh bo'lib, 2- shaxsga nisbatan quyidagi hollarda ishlataladi 1. Tanish shaxsga salom yo'llashda (masalan bolalarga, do'sta yoki biron bir qarindoshga, hamkasblarga chunki Sen deb murojaat qilish o'zaro yaqinlikni anglatadi) :

Möchtest du ins Kino gehen? sen ham kinoga borishni xohlaysanmi?

2. hayvonlar yoki narsa – predmetga qaratilgan murojaatda: Sendek ishlamaydigan moshinaning kimiga ham keragi bor

LINGUISTICS

3. muloqot jarayonida shaxsiz olmosh sifatida ishlataladi: og'zaki imtihonlar juda qiyin – deyarli u haqida hech nima deya olmaysan kishi.

4. Nemis tilida xat yozishda ba'zan sen, senga, sening yozuvlari bosh harf bilan yoziladi ,bu esa hurmat ma'nosini bildirib keladi: men Sen bilan yozishganidan xursandman, Senga oilamni tanishtirsam degandim.

"Er"(u-mujskoy rod)- 3-shaxsga ishora qilib, bir necha holatlarda ishlataladi. 1.shaxsning kimligini yoki nima bilan mashg'ulligini aniqlab beradi: U ishchi, u esa o'qituvchi, u iqtisodchi...

2. shaxsning qayerlik ekanligini yoki qaysi gruppaga tegishli ekaniga ishora qilinganda: U Buxorolik, u Berlinlik,

3. tirik mavjudodlarni yoki narsalarni muhim xususiyatga ko'ra hatto raqam o'lchamiga ko'ra : tuyogli hayvonlar, to'rt oyoqlilar, ..

"Es"(u-srednyi rod)- 3-shaxsni bildirib, 1. ot o'mida kishi yoki narsani nomlash uchun (grammatik jihatdan srednyi rodga tegishli bo'lsa):

Das Baby weint, nimm es doch auf dem Arm! Wo ist mein Kaninchen? Hast du es gesehen? Das ist ein grosses Problem, es wird nicht leicht zu lösen sein.

2. ot fe'lga ergashganda sein yordamchi fe'li bilan er yoki sie o'mida:

Ich glaube, ich kenne den Mann da- ja, es (yoki er) ist mein Onkel. Da kommt jemand- es ist Herr Meyer

3. jumlaning mazmuniga e'tibor qaratish uchun ishlataladi:

Er hat sein versprechen nicht gehalten.- Ich habe es leider auch nicht anders erwartet.

Die anderen waren alle erkältet- nur Martin war es nicht.

4. **Es** shaxssiz olmosh sifatida ishlataladi:

Es klingelt. Mach doch das Fenster zu- es zieht. Es kommt auf das Wetter an. Es geht um Ihre Bewerbung.

5. Ob-havoni ifodalaydigan fe'llar bilan birlgilikda ishlataladi:

Es regnet/ es schneit/ es donnert/ es blitzt/ es dämmert.

6. Majhul gaplarda otsiz konstruksiyalarda uchratishimiz mumkin:

Es wurde viel gelacht.

7. o'zaro gaplar ichida ergash gapning o'rnbosari sifatida ham kela oladi:

Mir fällt es schwer , nein zu sagen. Yoki Ich kann es nicht verantworten, dass du hier allein bleibst.

8. vaqtini anglatib kelgan gaplarda quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: Es ist ein Uhr.

Es ist schon Nacht.

"Sie" (u-jenskiy rod))- ham 3-shaxsga ishora qilib, sie ham turli ma'nolarda kelishi mumkin. 1. 3-shaxs birlik olmoshi bo'lib, jenskiy rodga tegishli bo'lgan ot o'mida ishlataladi:

Hast du Gabi gesehen?"- "Ja, sie ist im Garten". Pass auf, da ist eine Schlange, sie kann dich beiessen. "Wo ist die Torte?", -"Wir haben sie gegessen".

2. Bir necha shaxsni ko'rsatish uchun yoki otlar o'miga keladi:

Meine Eltern sind da. Sie sind vor einer Stunde gekommen.

3. Hurmat formasini sifatida qo'llaniladi va bunday hollarda bosh harf bilan yoziladi:

-Guten Tag, Frau Beier, kommen Sie herein. Möchten Sie etwas zu trinken? Meine Damen und Herren, darf ich Sie ins Nebenzimmer bitten?

"Wir"(bizlar))- ham ko'p ma'nolidir. 1. 1-shaxs ko'plikda, ikki yoki undan ortiq insonga murojaat qilinganda:

Wir gehen heute Abend ins Kino, weil wir freie Zeit haben.

2. ba'zi hollarda muallif yoki ma'ruzachi 1-shaxsda gapirmagan holatlarda foydalanishi mumkin: *Im nächsten Abschnitt gehen wir auf dieses Problem noch näher ein.*

3. Ko'pinch uchun bolaga murojaat qilganlarida yoki shifokorlar mijozlar bilan gaplashganlarida wir dan foydalanadilar:

O, liebes Kind, wie haben wir heite Nacht geschlafen?

Ihr"(sizlar) 2-shaxs ko'plikda qo'llaniladi:

Kommt ihr mit zum Baden?

Xulosa. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak shaxs, son va hurmat shakllari aniqrog'i qo'shimchalarining morfologik xususiyatini turli nuqtayi nazardan o'rganish mumkin. Jumladan, ularning so'z tarkibida boshqa morfemalarga nisbatan qo'llanadigan o'mini aniqlash, ya'ni distributiv tahlil qilish yoki tuslanishli shakllarni hosil qilishdagi o'ziga xosliklari jihatidan olib qarash mumkin. Bundan tashqari mazkur shakllarning tuzilishi, tarkibi, shaxs, son va hurmat qo'shimchasiga ajralish- ajralmasligi nuqtayi

LINGUISTICS

nazardan ham o'rgansa bo'ladi. Nemis tilshunosligi ham o'zbek tilshunosligidan farqli o'laroq gap tuzilish strukturasi jihatdan anchagini noo'xshashliklarni uchratishimiz mumkin. Ikkala tilda ham shaxsni olmoshlar orqali ifodalay olishimiz bilan, ulardag'i farqlarni ham misollar yordamida tushuntirishga harakat qildik. Ushbu maqolada biz o'zbek va nemis tillarida shaxsga ishora qiladigan vositalarga nazar tashladik, xolos.

ADABIYOTLAR:

1. *Turzunov A.X., Turzunov Z.Z., Tojixo'jayev M.M.: Lingvistika (nemis tili) magistratura mutaxasisligiga kiruvchilar uchun mutaxasislik fanlaridan DASTUR, Namangan-2021*
2. *Qahhor A., "Sinchalak", Toshkent „Global Books“ 2021*
3. *Professor Dr. Dieter Götz, Professor Dr. Günther Haensch, Professor DR. Hans Wellmann . Langenscheidt Grosswörterbuch Deutsch als Fremdsprache. 2008- Langenscheidt KG, Berlin und München*
4. *Astanov O., „Kein Himmel auf Erden“(O'.Hoshimov „Dunyoning ishlari“ trjimasi) 5. Sh. O. Kuvanova „Nemis tili grammatikasi dan universal qo'llanma“, Toshkent „Akademnashr“- 2013*
5. *Karimov Sh.. Nemis adabiyyoti tarixi. Toshkent-2010*
6. *Saidov S.: Deutsche Grammatik in Übungen. „O'zbekiston“ Toshkent-2003*
7. *<http://www.Ziyonet - O'zbekiston internet tarmog'i>*
8. *Hoshimov O'. „Dunyoning ishlari“, |Toshkent-2023*
9. *O'zbek tili grammatikasi, I tom, Morfologiya, „Toshkent- 1975“*
10. *<http://www.Google.De>*
11. *<http://www.Librarybooks.ne>*
12. *<http://www.google.de>*
13. *<http://www.Lehrer-online.de>*
14. *<http://www.Fachdidaktik - ienecke.De>*
15. *<http://www.Paperball.De>*